"TASDIQLAYMAN"
O'zmilliybank AJ Navoiy viloyati
Bosh boshqarmasi boshlig'i v.b.
_____ Z.I.Adizov

"24" mart 2026-yil

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" Navoiy viloyati Bosh Boshqarmasi yig'ilish bayoni

Raislik: qiluvchi — **Z.I.Adizov**- "O'zmilliybank" AJ Navoiy viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi

Qatnashdilar: O'zmilliybank AJ Navoiy viloyat Bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosarlari, Navoiy Amaliyoti xodimlari, bo'lim, sektor rahbarlari hamda xodimlar (ro'yxat asosida). Qatnashchilar soni 125 nafar.

K U N T A R T I B I:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining topshirig'iga asosan, 2025 yilning 8-noyabridan 12 dekabr kunlarida, O'zmilliybank AJ Komplaens tavakkalchilik blogi, Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan "google.forms" onlayn dasturi asosida bankning rasmiy kanali orqali o'tkazilgan anonim so'rovnoma natijalari muhokamasi;

2. O'zmilliybank AJ boshqaruv raisining 1-o'rinbosari 2026 yil 16-martdagi 964-F-sonli ko'rsatmasi bo'yicha talablari bo'yicha 2025 yilning yarim yilligi va 2026 yilning 1-choragi davomida yangi ishga qabul qilingan xodimlar bilan ZOOM asosida "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz" mavzusida o'quv mashg'uloti o'tkazilganligi bo'yicha;

(Z.I.Adizov, F.Xolov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan "O'zmilliybank" AJ Navoiy viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Z.I.Adizov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining topshirig'iga asosan, 2025 yil 8-noyabrdan 12-dekabrga kunlari oralig'ida "O'zmilliybank AJ" Komplaens tavakkalchilik blogi, Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan "google.forms" onlayn dasturi asosida bankning rasmiy kanali orqali o'tkazilgan anonim so'rovnoma o'tkazilganligini, ushbu so'rovnomada jami 1 152 nafar respondentlar ishtirok etganligini respondentlarning 41,4 foizini davlat tashkilotlari va idoralari xodimlari, 10 foizi tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari, 13,6 foizi bank-moliya sohasi vakillari, 4,6

foizi o'quvchi va talabalar, 4,4 foizi vaqtincha ishsizlarni tashkil yetganligini xodimlar diqqatiga yetkazildi.

"O'zmilliybank" AJning 35-242-sonli ko'rsatmasida o'tkazilgan anonim so'rovnomalarda keltirilishicha; Navoiy viloyati Bosh boshqarmasida bank xizmatlaridan foydalanishda ortiqcha byurokratik to'siklar, xodimlar tomonidan korrupsiya bilan bog'liq harakatlar, xodimlarning odob-axloq qoidalariga to'liq rioya etmaganliklari, kredit ajratilishida va ishga qa'bul qilish jarayonidagi kamchiklar borasida salbiy etiroz bildirilganligini ma'lum qildi.

Davlatimiz rahbari ko'plab ma'ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo'rlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiste'mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi to'g'risida aytib, korrupsiya - shunday illatki, uni bir yoki ikki departament, tuzilma sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha xodimlarimiz, jamoa bo'lib unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkinligini aytib, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, bankda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatga erishish, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslarga nisbatan qat'iy choralar ko'rish, to'g'ri va adolatli qarorlar qabul qilinsa, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklansa, ijtimoiy himoya kuchaytirilsa, xalqning jamiyatda adolat, haqiqat borligiga ishonchi ortadi. Uning aksi bo'lsa, odamlar orasida norozilik va hukumatga nisbatan ishonchsizlik yuzaga kelishini aytib o'tdi.

Kun tartibidagi masala bo'yicha Xavfsizlik rejim va axborotni himoya qilish bo'limi boshlig'i F.I.Xolov so'zga chiqib, Korrupsiya atamasi, eng avvalo, siyosiy apparat xodimlariga nisbatan foydalanishi odatiy tusga kirgan va makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichiga eng katta salbiy to'lqinni olib kiruvchi omil aynan korrupsiya hisoblanadi. Uning ko'rinishlari turlicha bo'lishi mumkin: poraxo'rlik, tovlamachilik, firibgarlik va boshqalar. Korrupsiyaning kelib chiqish ildizi qaerda?. Uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Biroq hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Korrupsiya mavjud bo'lgan har qanday davlat boshqaruvida, har qanday jamiyatning xayotida rivojlanish taraqqiyot bo'lmasligi aniq. Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar quyidagilar bo'lishi mumkin: **Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar** – ushbu vaziyat huquqni qo'llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. **Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi** - mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Kun tartibidagi 2-masala bo'yicha Bank tizimida yangidan faoliyat yuritayotgan xodimlarga o'tkazish, ularga korrupsiyaga qarshi immunitetni hosil qilish, korrupsiyani oldini olish yo'nalishida siyosiy ong va malakalarini yanada

oshirish, korrupsiyani har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish madaniyatini shakllantirish borasida o'quv ZOOM orqali 18-nafar xodimga mashg'uloti o'tkazildi.

"O'zmilliybank" AJ Navoiy viloyat Bosh boshqarmasi va ta'ssarufidagi BXO, BXMlarning barcha ishchi-xodimlari "Bank odob-axloq kodeksi" va "Ichki mehnat tartibi qoidalari" talablariga amal qilgan holda o'z vaqtida ishga kelib ketishlari, mijozlar bilan muloqotda muomala madaniyatiga qat'iy amal qilishlari hamda o'rnatilgan forma kiyimida bo'lishlarini doimiy nazorat qilib borilishi ta'kidlandi.

Rahbar xodim o'z hatti-harakatlari bilan shaxsiy namuna ko'rsatishi lozim bo'lsada, A.Aslonov nafaqat mehnat intizomini buzishi, balki, ishdagi odob-axloq tamoyillariga zid, kasbiy tartib-qoidalarga munosib bo'lmagan nojo'ya hatti-harakatlar qilganligi, bu bilan, boshqa bank xodimining obro'siga putur yetkazish ehtimolini yuzaga keltirganligi uchun, viloyatning Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va boshqa tegishli xodimlar tomonidan ogohlantirildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, tegishli sohaviy rahbarlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni so'zsiz bajarilishini ta'minlanishini bu borada tegishli chora-tadbirlab belgilanib, ish tizimini yanada takomillashtirishini ta'kidlashdi.

QAROR QILADI:

1. "O'zmilliybank"AJ Navoiy viloyati Bosh boshqarmasi boshlig'i v.b. Z.I.Adizov raisligida o'tkazilgan yig'ilishda ko'rsatib o'tilgan topshiriqlar ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2. "O'zmilliybank" AJ Navoiy viloyati Bosh boshqarmasi va ta'ssarufidagi BXM va BXO boshqaruvchi va mudirlariga:

Bank xizmatlari markazlarida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish, xizmat ko'rsatishning yangicha usul va tamoyillari asosida xizmat ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilsin;

Bank xodimlarining o'z vaqtida ishga kelib ketishlari, mijozlar bilan muloqotda muomala madaniyatiga qat'iy amal qilishlari hamda o'rnatilgan forma kiyimida bo'lishlari qat'iy nazoratga olinsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalarining ishonch telefonlariga kelib tushayotgan murojaatlarni o'z vaqtida samarali hamda sifatli to'liq bajarilishini ta'minlash choralari ko'rilsin;

3. Xodimlar bilan ishlash bo'limi (X.Farmonova)ga:

"O'zmiliybank" AJ Navoiy viloyati bosh boshqarmasi va ta'ssarufidagi BXO va BXMlarning barcha ishchi-xodimlarining "Bank odob-axloq kodeksi" va "Ichki mehnat tartibi qoidalari" talablariga amal qilishlari ta'minlansin;

- Mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning muomala va muloqat odobi tashqi ko‘rinishiga qo‘yilgan talablar doimiy ta’kidlab borilsin;

3. Mazkur yig‘ilish qarorini ijrosini nazorat qilish bo‘yicha “O‘zmilliybank” AJ Navoiy viloyati bosh boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Yig‘ilishni bayonlashtirdi **M.Hakimov**

24.03.2026 куни Ўзмиллийбанк АЖ Навоий Вилоят Бош бошқармаси ходимлари билан ўтказилган йиғилиш жараёни